

Yusupov Saidvali Shukrullayevich,

*Alfraganus university,
Xalqaro turizm menejmenti
kafedrasi professori v.b., DSc*

INNOVATSION STRATEGIYALARNI AMALGA OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNDA MILLIY IQTISODIYOTDA FOYDALANISH YO'NALISHLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida innovatsion strategiyalarni amalga oshirishning xorij tajribasi tizimli ravishda tahlil qilingan. Rivojlangan davlatlar – AQSh, Yaponiya, Germaniya, Shvetsiya, Shveytsariya, Janubiy Koreya hamda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning faol aralashuv, markazlashmagan boshqaruv va aralash (gibrid) strategiyalari, shuningdek, ilmiy-innovatsion rivojlanishning uchta asosiy modeli qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Innovatsion jarayonlarni tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari, to'g'ridan-to'g'ri hamda bilvosita ta'sir ko'rsatish vositalari, texnologiyalar transferi mexanizmlari va ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda mavjud ilmiy-texnikaviy salohiyatdan samarali foydalanish, texnologiyalar transferi milliy markazini tashkil etish, innovatsion infratuzilmani shakllantirish hamda innovatsion faoliyatni huquqiy rag'batlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsiya, innovatsion strategiya, innovatsion jarayon, davlat innovatsion siyosati, texnologiyalar transferi, innovatsion infratuzilma, venchur moliyalashtirish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), raqobatbardoshlik, xorij tajribasi.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish ko'p jihatdan turli tarmoqlardagi ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish hisobiga ta'minlanadi. Ishlab chiqarishning har tomonlama samaradorligini oshirish – zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning prinsipial asosi bo'lib, bozor munosabatlarini chuqurlashtirishning

hozirgi bosqichida muhim iqtisodiy masala hisoblanadi. Menejment va innovatsion jarayonlar tizimining ishlab chiqarishning asosiy tomonlari bilan o'zaro bog'liqligini hisobga olganda, mazkur masalaning ahamiyati yanada ortib boradi.

Fan-texnika taraqqiyoti bugungi kunda raqobatdosh ustunlikka erishishning asosiy manbaiga aylandi.

Mamlakatimizda ilm-fanni moliyalashtirish hajmi nisbatan kam bo'lishiga qaramay, ilmiy ishlanmalar va ixtirolar sohasi jadal rivojlanmoqda. Biroq innovatsion faoliyat zanjirining uzilishi tufayli ko'plab yangiliklar ishlab chiqarishga, keyin esa bozorga yetib bormayapti. Ko'pgina xorijiy davlatlar aynan innovatsion faoliyatni rivojlantirish, innovatsion jarayonni malakali va samarali tashkil etish hamda innovatsion mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga joriy etish hisobiga iqtisodiyotning keskin yuksalishiga erishganlar [1; 29-b.]. Shu bois rivojlangan davlatlarning innovatsion strategiyalarni amalga oshirish borasidagi tajribasini tizimli o'rganish va undan milliy iqtisodiyotda foydalanish yo'nalishlarini asoslash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsiyalar nazariyasining ilmiy asoslari xorijlik olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida asoslab, «yangi kombinatsiyalar» konsepsiyasini ilgari surgan va tadbirkorning novatorlik funksiyasini iqtisodiy dinamikaning markaziga qo'ygan. Rossiyalik tadqiqotchi V.A.Shumayev va hammualliflari tomonidan iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishni tashkil etishning xorijiy tajribasi, xususan, rivojlangan davlatlarda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari batafsil tahlil qilingan [1;

30-b.]. M.S.Sisoyeva samarali innovatsiyalarni joriy etishning mahalliy va xorijiy tajribasini qiyosiy o'rganib, rivojlangan davlatlar inqilobiy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali resurs cheklovlarini yengib o'tayotganligini ko'rsatib bergan [2; 28-b.].

O'zbekistonlik olimlar ham mazkur muammoni turli jihatlardan tadqiq etganlar. S.S.G'ulomovning ilmiy ishlarida korxonalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari doirasida innovatsion omillarning o'rni yoritilgan. N.M.Maxmudovning tadqiqotlarida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va modernizatsiya jarayonlarining ahamiyati asoslangan. A.Sh.Bekmurodov ishlarida milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda innovatsion yondashuvlarning roli tahlil etilgan. D.N.Rahimovanning tadqiqotlari xizmat ko'rsatish sohasi va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishda zamonaviy innovatsion usullardan foydalanishga bag'ishlangan. S.Sh.Yusupov tomonidan innovatsion rivojlanishda strategik boshqarishning ilmiy asoslari [3] hamda to'qimachilik va yengil sanoatni rivojlantirishning xorij tajribasi [4] tadqiq etilgan. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda innovatsion strategiyalarni amalga oshirishning xorij tajribasini tizimlashtirish va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish masalalari yetarlicha yoritilmagan bo'lib, mazkur maqola

aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xorijiy davlatlarning innovatsion siyosatini o'rganishda qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, AQSh, Yaponiya, G'arbiy Yevropa davlatlari hamda Janubiy Koreyaning innovatsion strategiyalari o'zaro taqqoslandi. Tizimli yondashuv asosida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari yaxlit tizim sifatida tahlil etildi. Ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez usullari yordamida innovatsion rivojlanish modellarining umumiy qonuniyatlari va milliy xususiyatlari aniqlandi. Statistik guruhlash va umumlashtirish usullari orqali innovatsion faoliyatni moliyalashtirish va texnologiyalar transferi samaradorligiga oid raqamli ma'lumotlar tizimlashtirildi. Tadqiqotning axborot bazasini xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari hamda rivojlangan davlatlarning innovatsion siyosatiga oid rasmiy manbalar tashkil etdi [2; 30-b.].

Tahlil va natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning rivojlanishi ilmfanga, inson kapitaliga, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga va ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan mablag'lar bilan bevosita bog'liqdir [1; 31-b.]. Ayrim xorijiy firmalarda innovatsiya g'oyalarining manbasi sifatida

aynan korxona xodimlaridan foydalaniladi va bu borada takliflar uchun maxsus kartochkalar tizimini qo'llaydigan Yaponiya firmalari katta tajribaga ega.

Amerikalik mutaxassislarning bahosiga ko'ra, AQShda tashkil qilina-yotgan 1 milliongacha kichik korxonaning sakkizdan bir qismi yangi mahsulotlar va texnologik loyihalarni ishlab chiqish hamda tijoratlashtirishga ixtisoslashadi, ilmiy-texnik tadqiqotlardagi xarajatlarining uchdan bir qismigacha esa u yoki bu shaklda davlat tomonidan moliyalashtiriladi [2; 29-b.]. Shu bilan birga, chet el firmalari katta tavakkalchilikni hisobga olib, yangi mahsulotga ehtiyotkorlik bilan yondashadilar: yirik Amerika firmalari mahsulotlarining 70 foizi – modifikatsiyalashgan mahsulotlar, 20 foizi – uncha katta bo'lmagan innovatsiyalar va faqat 10 foizi – mutlaqo yangi mahsulotlardir.

Innovatsiya faoliyatining maqsadlari, vazifalari va yo'nalishlarini hisobga olgan holda uni davlat miqyosida tashkil qilish prinsiplari ushbu jarayonni boshqarish uchun tegishli axborotlar olish bilan belgilanadi [3]. Xususan, bunday axborotlar tanlov asosida tekshirish, innovatsiya faoliyatini funksiyalash va har bir innovatsiya–investitsiya korxonasi uchun ishlab chiqish yo'li bilan olinishi mumkin, bu esa bozor munosabatlari shakllanayotgan va rivojlanayotgan sharoitda innovatsiya jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi. Turli davlatlarda davlat va bozor

munosabatlaridagi hamda ilm-fanni boshqarishning tashkiliy tuzilmasidagi farqlar mavjudligi bois, ilmiy-texnikaviy va innovatsion siyosatni shakllantirishda ham farqlar yuzaga keladi. Bunda muhim ko'rsatkich – tadqiqot va ishlanmalar xarajatlarining yalpi milliy mahsulotdagi salmog'i bo'lib [4], bu borada Shveysariya, Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya, Koreya hamda AQSh yetakchilik qiladi; yuqori texnologiyali davlatlarning ikkinchi guruhiga Angliya, Fransiya, Niderlandiya, Italiya kiradi.

Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash shakliga ko'ra, jahon amaliyotida davlatning faol aralashuvi strategiyasi, markazlashmagan boshqaruv strategiyasi hamda aralash boshqaruv shakllari qo'llaniladi. Faol aralashuv strategiyasi Yaponiya, Fransiya, Niderlandiya kabi davlatlarga xos bo'lib, ularda innovatsion faoliyat milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Markazlashmagan boshqaruv strategiyasida davlat strategik yetakchilik rolini saqlagan holda qattiq direktiv boshqaruvdan voz kechadi: asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida korxonalar, universitetlar va tadqiqot markazlari ko'riladi, davlatning vazifasi esa huquqiy bazani mustahkamlash, soliq imtiyozlari va moliyaviy rag'batlantirish orqali qulay muhit yaratishdan iborat bo'ladi (AQSh, Buyuk Britaniya). Aralash (gibrid) strategiyada davlat o'ziga qarashli yirik korxonalar va strategik tarmoqlarda innovatsion faoliyatga faol aralashsa, xususi sektorga

nisbatan rag'batlantiruvchi siyosat yuritadi; bunday yondashuv Shvetsiya, Finlyandiya kabi davlatlarda yaqqol namoyon bo'ladi [1; 33-b.].

Zamonaviy sanoati rivojlangan davlatlarning ilmiy-innovatsion rivojlanish modellarini tahlil qilganda uch asosiy tipni ajratish mumkin: fundamental va amaliy tadqiqotlarning barcha bosqichlarini to'liq qamrab oladigan, yirik milliy va xalqaro loyihalarga yetakchilik qila oladigan model (AQSh); jahon ilmiy-texnikaviy yutuqlarini tezkor assimilyatsiya qilish va innovatsion infratuzilmani jadal rivojlantirishga qaratilgan model (Yaponiya, Janubiy Koreya); innovatsiyalarni keng tarqatish, qulay muhit yaratish va kichik-o'rta biznesni rag'batlantirishga asoslangan model (Germaniya, Shvetsiya, Shveysariya).

G'arbiy Yevropa davlatlari «milliy chempionlar»ni qo'llab-quvvatlash strategiyasiga tayanib, AQSh va Yaponiyaning transmilliy korporatsiyalari bilan raqobatlasha oladigan yirik milliy kompaniyalarni shakllantirishga intiladilar: masalan, Buyuk Britaniyada mikroelektronika sohasidagi davlat grantlarining 80 foizdan ortig'i faqat beshta eng yirik firmaga to'g'ri kelgan. Biroq resurslarning cheklangan subektlar qo'lida to'planishi tarmoq ichidagi raqobatni susaytirib, ilg'or texnologiyalarning boshqa sohalarga tarqalishiga to'sqinlik qilmoqda [2; 31-b.]. XX asrning 80-yillaridan boshlab G'arbiy Yevropada xalqaro miqyosdagi yirik dasturlarga o'tish va Yevropa Ittifoqi doirasida muvofiqlashtirish

kuchaydi. Bunga uchta omil sabab bo'ldi: mahalliy ilmiy-moliyaviy resurslarning yetishmasligi; milliy bozorlarning kichikligi tufayli mahalliy dasturlarning samarasizligi; global raqobat sharoitida yagona texnologik maydon zarurati.

Yel davlatlarida innovatsion siyosat yagona monopoliyaga qarshi qonunchilik, ilg'or texnologiyalarni joriy etishni tezlashtirish, jadallashtirilgan amortizatsiya tizimi, ITTKI uchun soliq imtiyozlari, innovatsion loyihalarni to'g'ridan-to'g'ri grantlash hamda universitetlar va ishlab chiqarish o'rtasidagi kooperatsiyaga asoslanadi. Innovatsiyalarni tarqatish bo'yicha Yel rejasi tadqiqot natijalarini tezroq mahsulotga aylantirish, davlatlar o'rtasida transfer mexanizmlarini yo'lga qo'yish, patent tizimini takomillashtirish hamda kamroq rivojlangan a'zo davlatlarning innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda [1; 34-b.].

AQShda innovatsion faoliyatni boshqarish institusional jihatdan o'ta rivojlangan tuzilmaga ega: federal darajada fundamental tadqiqot yo'nalishlarini belgilaydigan Milliy Ilmiy Fond (NSF) va Milliy Ilmiy Kengash yetakchilik qiladi, Mudofaa vazirligi, NASA, Energetika vazirligi kabi idoralar esa tarmoq dasturlari doirasida yirik tadqiqotlarni moliyalashtiradi. Amerika modelining o'ziga xos jihati – davlat va xususiy sektor o'rtasidagi chuqur organik bog'liqlikdir: texnologiya transferi tizimi va konsorsiumlar orqali davlat tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyalar tez va samarali tarzda

xususiy sektorga o'tadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fundamental tadqiqotlarga sarflangan har bir dollar 6–7 yil ichida iqtisodiyotga ikki baravar ko'p foyda keltirsa, texnologiya transferi orqali bu ko'rsatkich qisqa muddatda 15–20 baravarga yetishi mumkin [2; 32-b.]. AQShda federal texnologiyalarni uzatish to'g'risidagi qonun amal qilib, Milliy fond tomonidan byudjet hisobidan patentlangan ixtirolardan tijorat maqsadida foydalanish uchun bepul litsenziyalar berish, davlat xizmatlariga haq to'lashda imtiyozlar, olim va innovatorlarni ma'naviy rag'batlantirish hamda monopoliyaga qarshi qonunchilik orqali innovatsion faoliyat rag'batlantiriladi [3].

Innovatsion jarayonlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlaydigan asosiy vosita davlat innovatsion infratuzilmasini shakllantirish hisoblanadi. Davlat innovatorlarga yordam tarzida yangiliklarni keng yoyish markazlari va maslahat markazlarini tashkil etishi mumkin. Bunda innovatsion loyihalarni davlat ekspertizasidan o'tkazish alohida o'rin tutadi, chunki yangiliklarni amalga oshirayotgan ayrim tashkilotlar uchun ularning umumiy iqtisodiy samarasini baholash qiyin kechadi. Shuningdek, yetakchi olim va innovatorlarni ma'naviy rag'batlantirish – ularga davlat mukofotlari va faxriy unvonlar berish, yetakchi innovatsion tashkilotlarga davlat arboblarning tashrif buyurishi hamda davlat tadbirlariga innovatorlarni taklif etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki va xalqaro raqobat kurashini rivojlantirish

mexanizmining ishlab chiqilganligi ham innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirishda alohida o'rin tutadi.

Yaponiya o'tgan asr oxirlaridan ratsionalizator davlatga aylanish, mexatronika, biotexnologiya va yangi materiallar texnologiyalari ijodkori bo'lish siyosatini amalga oshira boshladi. Mamlakat innovatsion siyosati sodda mexanizmga ega: Bosh vazirning ilmiy taraqqiyoti ishlari bo'yicha Kengashi ustuvor yo'nalishlarni belgilagach, barcha yirik korporatsiyalarga dasturda ishtirok etish taklif etiladi; vazirlik korporatsiyalarga ilmiy laboratoriyalardan foydalanish imkonini yaratadi va universitet olimlarini jalb etadi, ammo moliyalashtirishni zimmasiga olmaydi. ITTKI xarajatlari korporatsiyalar tomonidan birgalikda qoplanadi, natijalar esa barcha qiziquvchi kompaniyalarga e'lon qilinadi. Hukumat bozorlarga kafolat bermaydi, ammo milliy bozorni himoyalash maqsadida proteksionistik siyosat yuritadi, shu bois innovatsiyalarni joriy etgan yapon ishlab chiqaruvchilari ichki bozorda tashqi raqobat bosimini deyarli his etmaydilar. Eksportni rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalari bilan birga an'anaviy iqtisodiy va ma'muriy usullardan ham keng foydalaniladi [4].

Innovatsion faoliyatga davlatning ta'sir ko'rsatish usullarini ma'muriy va iqtisodiy usullarga ajratish mumkin bo'lib, ular o'rtasidagi nisbat mamlakatdagi iqtisodiy holat hamda tartibga solish konsepsiyasining bozorga yoki markazlashgan ta'sirga asoslanganligi

bilan belgilanadi [1; 36-b.]. Ma'muriy usullar bozor iqtisodiyoti sharoitida qonunchilik asosida – patentlashtirish, huquqiy meyorlashtirish va standartlashtirish siyosati orqali amalga oshirilib, subektlarga yangilikka nisbatan monopoliyani saqlash imkonini beradi. Eng keng tarqalgan iqtisodiy usullar esa ishlab chiqarishni motivatsiyalash omillariga asoslanadi: to'g'ridan-to'g'ri ta'sir vositalariga investirlash, kreditlash, lizing, rejalashtirish va davlat buyurtmalari kirsas, bilvosita vositalarga amortizatsiya va soliq siyosati, kredit va narx siyosati hamda proteksionizm kiradi. Davlat buyurtmasini bajarayotgan korxona moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanadi hamda davlat laboratoriyalari va boshqa texnologik resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi [3].

Umuman olganda, rivojlangan davlatlar milliardlab dollar sarflab, keyinchalik xo'jalik faoliyatiga joriy qilinadigan inqilobiy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlaydilar. Bu ularning iqtisodiyotlarida raqobatbardoshlikni saqlashga yordam beradi: mehnat umumdorligini oshirish orqali tabiiy resurslarning yetishmasligi, kichik hududiy o'lchamlar va aholi qarishuvi kabi cheklolarni yengishga erishiladi [2; 33-b.].

Xulosa va takliflar.

Xorijiy mamlakatlarning innovatsion faoliyatni boshqarish tajribasini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, innovatsion sohada yetakchi mamlakatlar o'z siyosatini ilmiy tadqiqotlarni davlat

darajasida qo'llab-quvvatlash, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash, mahalliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirish, texnologiyalar transferi tizimini mukammallashtirish, intellektual mulk huquqlarini mustahkamlash hamda bilvosita (soliq, subsidiya, grant) tartibga solish mexanizmlarini kengaytirish kabi fundamental tamoyillarga asoslaydilar. Shuningdek, ushbu tamoyillar tizimiga axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, fan va texnikani rag'batlantirishning institusional tizimini takomillashtirish, innovatsion faoliyat natijalarini baholashning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqish hamda xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik va mehnat taqsimotini kengaytirish ham kiradi. Ikkinchidan, faol aralashuv, markazlashmagan va aralash strategiyalarning har biri muayyan institusional muhitda samara beradi, shu bois ularni mexanik ko'chirish emas, balki milliy sharoitga moslashtirish talab etiladi.

Tadqiqot natijalari asosida davlat innovatsion siyosatining samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi [4]:

- innovatsion faoliyatni huquqiy rag'batlantirishning mustahkam qonunchilik bazasini yaratish orqali mavjud ilmiy-texnikaviy salohiyatdan samarali foydalanishni ta'minlash

hamda davlat korxonalari va ilmiy muassasalarning yangi texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etishdagi faolligini oshirish;

- texnologiya transferi jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi milliy darajadagi maxsus markaz tashkil etish;

- ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish hamda ularning moliyaviy va normativ-huquqiy ta'minotini mustahkamlash;

- yirik korporatsiyalar, ishlab chiqarish korxonalari, oliy ta'lim muassasalari, akademik institutlar va ilmiy laboratoriyalarni birlashtirgan holda zamonaviy innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

- iqtisodiyot uchun yuqori ahamiyatga ega ixtiro, texnologik yechim va ilmiy yutuqlar to'g'risida muntazam axborot taqdim etuvchi maxsus ilmiy-texnik nashrni yo'lga qo'yish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi mamlakatimizda innovatsion faoliyat zanjirining uzluksizligini ta'minlash, ilmiy ishlanmalarning ishlab chiqarishga va bozorga yetib borishini tezlashtirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Шумаев В.А., Дивуева Н.А., Лукашева Н.А. Зарубежный опыт организации инновационного развития экономики // Инноватции и опыт. – 2021. – Выпуск 2 (32). – С. 28–39.

1. Сисоева М.С. Отечественный и зарубежный опыт внедрения эффективных инноваций // АТР. – 2021. – №1. – С. 27–37.
2. Yusupov S.Sh. Innovatsion rivojlanishda strategik boshqarishning ilmiy asoslari // Marketing ilmiy, amaliy va ommabop jurnali. – 2024. – №8.
3. Yusupov S.Sh. To'qimachilik va yengil sanoatni rivojlantirishning xorij tajribasi // «Logistika va iqtisodiyot» ilmiy elektron jurnali. TDIU, – 2020. – №1.
4. Xalilov S.Sh. Loyiha jamoasida funksiyalarini samarali bajarishning o'ziga xos xususiyatlari. - Innuc, 2024.
5. Sayfutdinov Sh., Murodov J. Modern methods of managing hotel service quality and improving efficiency. *Journal of Economics and Tourism Research*, 2026.
6. Berdiyev B.S. Scientific and theoretical basis of providing employment of the population in the conditions of a market economy. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2022.
7. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
8. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.
9. Abduraimova, N., Sharopova, N., Khujaev, M., Sapayev, V., Fattoyeva, O., & Yusufov, S. (2025). Economic development through analysis of the education and entrepreneurship impacts. *Economic Annals-XXI/Ekonomičnij Časopis-XXI*, 214(3/4), 84.
10. Isoxonovich, M. X. (2022). Middle Ages Movarounnahr Rulers in the Views OF Researchers. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(6), 134-136.
11. Xujayev, M. I. (2018). THE COVERAGE OF THE PROBLEM OF NATIONALITY AND ITS ROLE ON THE PRESENT DAY IN AHMAD ZAKI VALADI'S WORK. *Мировая наука*, (6 (15)), 61-63.
12. Хужаев, М. И. (2018). АХМАД ЗАКИ ВАЛИДИЙНИНГ ДИНИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 177-182).
13. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239

8. Тиловмурадов Д. Влияние маркетинга в социальных сетях (smm) на туристические мотивации и решения о путешествии—процесс принятия решения: изучение Ташкента, Узбекистан. - Alfraganus, 2023.

